

O‘ZBEKISTONDAGI SHIA JAMOALARINI O‘RGANISHDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

Nig‘matullayev Ibrohim Ma‘ruf o‘g‘li

O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi

“Dinshunoslik va jahon dinlarini qiyosiy o‘rganish

UNESCO” kafedrası tayanch doktoranti

Ibrohim2907@umail.uz

Annotatsiya. Maqolada O‘zbekistondagi shia jamoalarini o‘rganishdagi zamonaviy yondashuvlar yoritib berilgan. Xususan, xorijiy va mahalliy olimlarning O‘zbekistondagi shia jamoalari an‘analari, ularning o‘ziga xos xususiyatlari bo‘yicha olib borgan tadqiqotlari natijalari tahlil qilingan. Shuningdek, O‘zbekiston hududiga shia jamoalarining kirib kelish tarixi, ularning nomlari, diniy an‘ana va marosimlari, mintaqaviy xususiyatlari tadqiq qilingan.

Kalit so‘zlar. shia, shia jamoalari, eroniy, ijtimoiy-madaniy, an‘ana, marosim, oqim, bayram.

KIRISH

Islomdagi yo‘nalishlardan biri bo‘lgan shialikning kelib chiqishi, shakllanishi, o‘ziga xos xususiyatlari hamda shialar joylashgan hududlarda mahalliy sunniy aholi bilan uzoq yillar davomidagi hayot tarzining namoyon etilishi hozirgi kunda sunniy va shia jamoalari o‘rtasidagi tushunmovchiliklarni bartaraf etish uchun muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Jahonda sodir bo‘layotgan voqealar orasida millatchilik, diniy ekstremizm va terrorizm, etnik nizolarning oldini olishda islom dini doirasida paydo bo‘lgan turli yo‘nalish va mazhablarning o‘zaro muloqotini yo‘lga qo‘yish millatlararo tinchlikni ta‘minlashda dolzarb sanaladi.

Dunyodagi bir qator ilmiy tadqiqot muassasalari tomonidan shia jamoalari tarixini maxsus o‘rganishga alohida e‘tibor qaratilgan. Ammo O‘zbekistondagi shia jamoalari shakllanish tarixi va hozirgi kundagi ahamiyati maxsus tadqiq etilmagani obyektiv yondashuv asosida alohida ilmiy izlanishlar olib borishni taqozo etmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

O‘zbekistonda shia jamoalari to‘g‘risidagi tarixiy ma‘lumotlar Abu Rayhon Beruniyning “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” (“Al-osor al-boqiya an al-

qurun al-holiya”) [1], XVIII-XIX asr Eron va Movarounnahr diniy va siyosiy tarixini o‘rganishga qaratilgan Muhammadyusuf Munshiyning “Tarixi Muqimxoniy”, Muhammad Kozim Marviyning “Tarixi Alamarayi Nodiriy”, “Muntahabut-tavorix”, Muhammadhakim Ma’sumxon, Ahmad Donishning “Tarixi amironi mang‘itiya” asarlarida, shuningdek, ingliz va rus sayohatchilarining asarlarida uchraydi [2].

Rus tadqiqotchilaridan O.A.Suxareva, F.D.Lyushkevich, A.Xoroshin, **V.P.Litvinov**; o‘zbekistonlik tadqiqotchilardan Sh.Toxtiyev, B.M.Yalgashev, R.Xoliqova, M.B.Qurbonova tadqiqotlarida mavzuning ayrim jihatlari o‘rganilgan.

NATIJARLAR

Rus tadqiqotchisi **V.P.Litvinov tomonidan tarix fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan** “Rossiyaning O‘rta Osiyo musulmonlari ziyoratlarini tashkil etish va tartibga solishdagi tarixiy tajribasi (1865 - 1917)” **nomli doktorlik dissertatsiyasida Turkistondagi shia musulmonlari ziyoratlarining davlat tomonidan tartibga solinishi tadqiq etilgan bo‘lib, unda shia musulmonlarining asosiy “ziyorat” markazlari haqidagi ma‘lumotlar berilgan [3].**

Turkiyalik tadqiqotchi Leyla Dervishning ma‘lumotlariga ko‘ra, O‘zbekistonda yashayotgan eroniylar va ularning tarixi yoritib berilgan. Uning fikriga ko‘ra, O‘zbekistonda yashayotgan eroniylar tarixi o‘rta asrlarga borib taqaladi va ular mintaqaga asir va qul sifatida olib kelingan. O‘sha paytda eronliklar Buxoro xonligida muhim vazifalarni o‘z zimmasiga olganlar. Ularning aksariyati mahalliy aholi bilan qorishib ketib, sunniylikni qabul qilgan. Eroniylar, asosan, Buxoro va Samarqandda istiqomat qiladilar. Ularning soni oz bo‘lsa-da, O‘zbekistonning boshqa mintaq va shaharlarida ham eronliklar yashaydi. O‘zbekiston eroniylari eronlik vatandoshlaridan farq qilib, ko‘plab mahalliy xususiyatlarni o‘zlarida namoyon qilganlar.

O‘zbekistonning asosan Buxoro va Samarqand shaharlarida yashovchi shialar, o‘zlarini eroniy deb ataydilar. Bu eroniylar o‘zlarining lingvistik xususiyatlariga ko‘ra forsiylar hisoblanib, ular ikkiga: tojikcha va turkcha (o‘g‘uz) tillarga bo‘linadi. Buxoroda fors tilida so‘zlashuvchi eronliklar istiqomat qiladi, turkiyzabon eronliklar esa Samarqandda yashaydi. Buxoroda yashovchi eronliklarni mahalliy aholi forsiy deb ataydi. Bulardan tashqari, mintaqadagi shialarga o‘zlari kelib chiqqan shahar yoki mintaqaga qarab marviy, xurosoniy, mashhadiy, sabzavoriy, pirsion deb ham ataladilar.

L.Dervish bergan ma'lumotlarga ko'ra, mintaqada panjiy atamasi ham shia jamoalarini anglatish uchun ishlatilgan. Ma'lumki, "panj" forsiy tilida besh ma'noni anglatadi va shia mazhabidagi "Ahl al-Bayt" (Muhammad (s.a.v), Ali, Fatima, Hasan va Husayn)ning ramzi hisoblanadi. Boshqacha qilib aytganda, eronliklar ba'zan o'zlarini panjiy deb ham ataydilar. Eronliklar Buxoro va Samarqanddan tashqari O'zbekistonning ko'plab mintaqalarida kichik guruhlarda mavjud bo'lib, O'zbekiston hududiga Amir Temur o'zining G'arbga uyushtirgan safarida Eron dan Samarqandga yuzlab san'atkorlar, hunarmandlar va hunarmandlarni olib kelgan [4].

1740-1742-yillarda Nodirshohning Turkistonga qilgan safarlari davomida ba'zi eronliklar Buxoro atrofida, ya'ni shahar devorlaridan tashqariga o'rinish olgan. Bulardan eng yiriklari Buxoroning janubi-g'arbidagi Afshar va Qom Rabot mahallalari hisoblanadi. Afshar mahallasi Shayx Jalol darvozasi yaqinida joylashgan.

L.Dervish rus tadqiqotchi A.Xoroshin ma'lumotlariga tayanib, Turkiston hududida qul sifatida yashagan eroniylarning avlodlari saroyda qushbegi lavozimigacha ko'tarilishga muvaffaq bo'lganligini ta'kidlab o'tgan [5].

Rus tadqiqotchilari Y.Averyanov va E.Seitovlar dala tadqiqotlari asosida Buxoro eroniylarining mintaqaga kirib kelish tarixi, buxoro eroniylari mahallalari (guzar), sunniy-shia munosabatlari, "Ashuro" marosimi va uni o'tkazishdagi o'ziga xos yondashuvlar, eroniylarning diniy marosimlarni o'tkazadigan maxsus joylari – husayniyaxonalar, eroniylarning otinoyisi hisoblangan oy yamlo va uning vazifalari, eroniylarning muqaddas joylari va ziyoratgohlarini o'rganganlar [6].

Sovet etnografi O.A.Suxareva uzoq vaqt davomida Buxoroning guzarlari (kvartallari)ni o'rgangan, faqat shia mazhabiga mansub Eron aholisi bo'lgan hududlarni, ularning guzarlarida joylashgan masjidleri va asosan "Ashuro" kunlarida motam tadbirlarini o'tkazish uchun ishlatiladigan shia ibodatxonalari - husayniyaxonalarni tasvirlab bergan.

O.A.Suxareva bergan ma'lumotlarga ko'ra, eronliklar Ubaydullaxon (1533-1539) davrida, ya'ni XVI asr boshlarida Buxoroga asir sifatida keltirilgan. Bu holat keyingi davrlarda ham davom etgan.

O.A.Suxareva va boshqa bir qator tadqiqotchilarning olib borgan ishlaridan shuni ko'rish mumkinki, Buxoroda eroniylar jamoasining paydo bo'lishi va shakllanishi tarixi zamonaviy Eron, Afg'oniston va qisman Tojikistonning shimoliy hududlaridan turli etnik guruhlarni zo'ravonlik bilan va ixtiyoriy ravishda uzoq vaqt davomida ko'chirish jarayoni bilan bog'liq hisoblanadi [6].

Keyingi qimmatli manba F.D.Lyushkevich tadqiqotlari bilan bog‘liq bo‘lib, u eroniylar hayotining ayrim jihatlarini hayot sikli marosimlari misolida ko‘rib chiqqan. F.D.Lyushkevich Buxorodagi eronliklarni o‘rganish uchun muhim manba 1910-yildagi shia-sunniy qarama-qarshiligi, undan oldingi voqealar va Buxoroning ikki diniy jamoasi o‘rtasidagi ziddiyatning yanada kuchayishiga yo‘l qo‘ymaslik choralari bilan bog‘liq tadqiqot olib borgan [6].

Dafn marosimi F.D.Lyushkevichning tadqiqot ishida batafsil ko‘rib chiqilgan bo‘lib, uning fikriga ko‘ra, mazkur marosimning ayrim jihatlarini soddalashtirilganligini hisobga olmaganda uning asosiy qonun-qoidalari o‘zgarmasdan qolgan. F.D.Lyushkevich tomonidan zikr qilingan “chil taboruk” marosimi bugungi kunda marhumga uzluksiz duo o‘qishdan iborat bo‘lib, qirq tugunli oq matoga tikilgan tugunchali tasma o‘qilgan duolar sonini bildirib, u marhumning bo‘yniga ilib qo‘yiladi [6].

Tadqiqotchi Aleksandr Djumayevning 2004-yildan boshlab to‘plangan Buxoro va uning atrofida dala tadqiqotlariga asoslangan bo‘lib, unda turli yozma va boshqa manbalar asosida “Ashuro” marosimi va uning o‘ziga xos xususiyatlari o‘rganilgan [7]. Shuningdek, O‘rta Osiyo shia (eroniy) jamoalarining diniy hayoti, “Shahsey-vahsey”, “Ashuro”, “Shomi g‘aribon” kabi turli an‘ana va marosimlari xususidagi ma‘lumotlarni o‘z ichiga olgan. Uning fikriga ko‘ra, bugungi kunda ulardan faqat bir nechta mavjud hisoblanadi. A.Djumayevning tadqiqoti O‘zbekistondagi eroniy shia jamoasida “Ashuro” (Ravzaxoniy) marosimi bilan bog‘liq diniy tasavvurlar va urf-odatlariga bag‘ishlangan bo‘lib, o‘rta asr yozma manbalari, inqilobdan oldingi va hozirgi zamon etnografik dala tadqiqotlarini qiyosiy tahlil qilish natijasida yuzaga keltirilgan. Tadqiqotning uchta asosiy obyekti mavjud bo‘lib, ular O‘rta Osiyodagi sunniylik muhitida shialarning “Ashuro” marosimi aks etishi, Buxoro shahri va tumanlarida “Ashuro” marosimi o‘tkazish xususiyatlaridan iborat hisoblanadi. Shuningdek, marosimning marosimlar o‘tkaziladigan joyga qarab farqlanishi (masalan, husayniyaxonada yoki uyda) ta’kidlab o‘tilgan [8].

MUHOKAMA

O‘zbekistonlik tadqiqotchilardan Sh.Toxtiyevning “Markaziy Osiyoda shia jamoalarining shakllanishi va o‘ziga xos xususiyatlari” nomli tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasida islom tarixida shialik yo‘nalishining diniy-siyosiy harakat sifatida vujudga kelishi, shialikda yuzaga kelgan yo‘nalish, oqim va fiqaralar hamda ularning diniy qarashlari, XVI asrda Xuroson va Movarounnahr sunniy va shia davlatlari o‘rtasidagi

munosabatlar, XX-XXI asr boshlarida Markaziy Osiyo shia jamoalarining etnik guruh sifatida shakllanishi va ijtimoiy hayoti, O'zbekiston shia jamoalarining muqaddas joylari va urf-odatlar haqidagi ma'lumotlar berilgan [9].

Sh.Toxtiyevning "O'rta Osiyo shialarining kelib chiqishi va ularning o'ziga xos xususiyatlari" deb nomlangan maqolasi O'rta Osiyo "eroniy"lari tarixi, madaniyati va dinining qisqacha tavsifiga bag'ishlangan. Shuningdek, eronliklarning O'rta Osiyoga kelib qolishi, diniy an'alarining o'ziga xos jihatlari haqida ham ayrim tarixiy ma'lumotlar keltirilgan. Shuningdek, tadqiqotchining "Samarqand va Buxoro eroniylari qisqacha tarixi" nomli maqolasida Movarounnahr "eroniylari"ning tarixi, madaniyati va dini haqida ma'lumot berilgan. Maqolada, shuningdek, eronliklarning Movarounnahrda ko'chirilishi, ularning konfessional xususiyatlari va diniy marosimlari haqidagi ba'zi tarixiy ma'lumotlar ko'rib chiqilgan [10].

Samarqand va buxorolik "eroniy"larning tarixini o'rgangan olim Sh.Toxtiyev eroniylarni "XX asr boshlarida Erondan kelgan muhojirlar" deb atagan. Aynan shu davrda eroniylar Markaziy Osiyoda yangi kelgan aholining sezilarli va o'sib borayotgan qatlamini tashkil qilgan. Ularning soni, ayniqsa, Eron bilan chegaradosh hududlarda tez ortgan. Masalan, Transkaspiy mintaqasida 18 511 nafar eronlik yashagan. Turkiston o'lkasining boshqa shahar va viloyatlarida ham aholisining salmoqli qismini Erondan kelganlar tashkil etgan. 1910-yilda Samarqandda 300 ga yaqin Eron fuqarolari ro'yxatga olingan bo'lsa, ulardan tashqari bu yerda Rossiya imperiyasiga tobe bo'lgan forslarga tili va diniga yaqin bo'lgan 16 mingdan ortiq "eroniylar" yashagan [11].

"O'rta Osiyo shialarining kelib chiqishi va ularning o'ziga xos xususiyatlari" nomli maqolada tadqiqotchi Sh.Toxtiyev O'rta Osiyo "eroniy"lari tarixi, madaniyati, dini, shuningdek, eronliklarning O'rta Osiyoga kelib qolishi, diniy an'alarining o'ziga xos jihatlari haqida ham ayrim tarixiy ma'lumotlar keltirilgan [12]. Tadqiqotchining "XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Buxoro amirligida sunniy-shia munosabatlari" deb nomlangan boshqa bir maqolasida Movarounnahrda shia muhojirlarining tarixi, ularning konfessional muhitdagi ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy hayoti, shuningdek, mahalliy sunniy aholiga qarshi to'qnashuvlari tarixi, sabab va oqibatlari haqida qisqacha ma'lumot berilgan [13].

Tadqiqotchi M.Vaxabovning ma'lumot berishicha, eroniylar ham o'zlarini tojik deb ataganlar. Eroniylar o'zining "tojik" nomini o'zining eski vatanidan olib kelishi mumkin edi. Mahalliy aholi: "Mo tojik ro ironiho miguim", deydi. Bu esa tarjimada: "Eronliklarni tojik deymiz" degan ma'noni anglatadi. Tojik xalqi (shuningdek, o'zbeklar ham) IX–XI asrlarda asosiy xususiyatlarda shakllangan [14].

Tadqiqotchi B.M.Yalgashevning “Samarqand vohasi etnik guruhlarining kelib chiqishi va ularning yashash tarzi” nomli maqolasida Samarqand vohasida qadimdan yashab kelgan turkiy va turkiy bo‘lmagan qabilalarning tarixi, ularning vohadagi turmush tarzi hamda ularning o‘zaro madaniy aloqalari tahlil qilingan. Shuningdek, bugungi kundagi Samarqand vohasi etnomadaniyatida o‘zining madaniy va ijtimoiy ta‘sirini saqlab kelayotgan tojik va eroniy millatlarining tarixi va madaniyati o‘rganilgan.

Tadqiqotchi B.M.Yalgashevning ma‘lumotlariga ko‘ra, hozirgi kunda ham Samarqand vohasida eroniy millatiga mansub aholining ulushi yuqori hisoblanib (23 288 nafar), ularning katta qismi Samarqand shahri (21 732 nafar) va tumaniga (1 395 nafar) to‘g‘ri keladi. Pasdarg‘om tumanining Amir Temur, Bo‘ston, Furqat, Gulakandoz, Po‘latchi va Turon mahallalarida 160 nafar eroniy millatiga mansub aholi yashab kelayotganligi qayd etilgan [11].

Tarix fanlari doktori, professor R.Xoliqovning ma‘lumotiga ko‘ra, Buxoro amirligi mavjud bo‘lib turgan so‘nggi davrlarda Rossiya protektorati muhitida bu davlatda hukmdorga sodiqlik bilan xizmat qilgan davlat amaldorlari elitasi shakllanganligi, bu elitaning bir qismi mahalliy zodagonlar orasidan, ikkinchi qismi esa turli davlatlardan, jumladan, Erondan kelgan muhojirlar orasidan tashkil topganligi ta‘kidlangan. Diniy mansubligi bo‘yicha “eroniy” deb atalgan etnik guruh turkmanlar va xivaliklarning Eronga uyushtirilgan bosqinlari paytida qo‘lga olingan, so‘ngra Xiva va Buxoro qul bozorlarida qayta sotilgan shialar hisoblangan. Bundan tashqari, Buxoro hukmdorlarining Eron va Afg‘oniston hududlariga bosqinlari chog‘ida ko‘plab qullar asirga olingan. Nodirshoh, Amir Shohmurod va boshqalar hukmronligi davrida ko‘plab eronliklar ko‘chirilganligi qayd etilgan [15].

M.B.Qurbonova tadqiqotida Buxoro eroniylarining marosimlaridan Fotimani xotirlash an‘anasi va uning o‘ziga xos xususiyatlari o‘rganilgan. Tadqiqot ishida marosim davomida aytiladigan Fotimaning vafoti hikoyasi, motam tutish tartibi, Qur‘on oyatlaridan o‘qish va bayram dasturxonini tasvirlangan. Sunniylarda bu marosim o‘tkazilmasa-da, tadqiqotchi M.B.Qurbonovanning qayd etishicha, hozirda ushbu marosimda shialar bilan bir qatorda sunniylar – o‘zbeklar va tojik ayollar ham qatnashadilar [16].

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, mamlakatimizda olib borilayotgan ko‘p millat va konfessiyaviylik siyosati davr taqozosi hisoblanib, o‘zaro do‘stlik va hamjihatlikni yanada rivojlantirish, qaysi millat, din va e‘tiqodga mansubligidan qat‘i nazar, barcha fuqarolar uchun teng huquqiylikni ta‘minlash asosiy masala sanaladi.

Shundan kelib chiqib, O'zbekistonda yashayotgan shia jamoalari tarixi va madaniyatini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abu Rayhon Beruniy. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. -TA. 1 t. - T.: "Fan", 1968. - B. 40.

2. **Муллоджонов С.К.** Ирано-среднеазиатские отношения в XVIII-XIX века: влияние религиозного фактора // Вестник Педагогического университета. 2019. №5 (82). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/irano-sredneaziatskie-otnosheniya-v-xviii-xix-veka-vliyanie-religioznogo-faktora> (дата обращения: 17.12.2023). – **С. 252.**

3. Литвинов В.П. Исторический опыт Российского государства в организации и регулировании паломничества мусульман Средней Азии. Дис. ... докт. ист. наук. – Елец: 2019.

4. Derviş L. Özbekistan iranilerinin tarihine kısa bir bakış // Selçuk Üniversitesi Türkiyat Araştırmaları Dergisi. – 2021. – №. 51. – С. 11-27.

5. Derviş L. Turkestanskiye vedomosti gazetesi'nin türkistan tarihi kaynağı olarak önemi/the importance of the newspaper turkestanskiye vedomosti as the source of information on the history of turkestan //selçuk üniversitesi türkiyat araştırmaları dergisi. – 2020. – т. 1. – №. 49.

6. Аверьянов Ю., Сеитов Э. Обрядовая жизнь шиитов ирони Бухары по данным полевых исследований // **Оазисы Шелкового пути: современные проблемы этнографии, истории и источниковедения народов Центральной Азии: К 100-летию доктора исторических наук Балкис Халиловны Кармышевой, 2018: сб. науч. ст. / отв. ред. Котюкова Т.В. – М., 2018. – С. 762-773.**

7. Джумаев А. Традиция ашуро у иранцев Бухары как социокультурный и художественный феномен // Мир ислама: история, общество, культура. **Мир ислама: история, общество, культура: Тезисы докладов II Международной научной конференции. 28–30 октября 2010 г.**) – С. 43.

8. Джумаев А.Б. Традиция ашуро у иранцев Бухары: источники и историко-культурный контекст // PaxIslamica. – 2010. – Т. 2. – С. 114-136.

9. Toxtiyev Sh.R. Markaziy Osiyoda shia jamoalarining shakllanishi va o'ziga xos xususiyatlari: Tar. fan. fals. dok. (PhD) ... dis. – Toshkent, 2021. – 2 b.
10. Тохтиев Ш. Происхождение среднеазиатских шиитов и их характеристика // Восточный факел. – 2017. – Т. 3. – №. 3-4. – С. 99-104.
11. Yalgashev B.M. "Samarqand vohasi etnik guruhlarining kelib chiqishi va ularning yashash tarzi" // **Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари. -№ S/2 (3)-2023. ISSN: 2181-1342 (Online)** <https://scienceproblems.uz> – **B. 212.**
12. Тохтиев, Ш. (2017). Происхождение среднеазиатских шиитов и их характеристика. Восточный факел, 3(3-4), 99–104. извлечено от <https://inlibrary.uz/index.php/eastern-torch/article/view/10160>
13. Tokhtiev S. R. Суннитско-шиитские отношения в Бухарском эмирате в конце XIX-начало XX вв. // Theoretical & Applied Science. – 2019. – №. 10. – С. 218.
14. **Вахабов М.Г. Формирование узбекской социалистической нации. – Т., 1961. – С. 58.**
15. Холикова Р.Э. К генеалогии Астанакула кошбеги-премьер-министра Бухарского эмирата (1888-1910 гг.) (со слов его родственников) // Проблемы современной науки и образования. – 2016. – №. 20 (62). – С. 30.
16. Курбанова М. Б. Традиция поминания Фатимы-и Захро шиитской общиной Бухары / М. Б. Курбанова // Этнос и конфессия: материалы Восемнадцатых Международных Санкт-Петербургских этнографических чтений, Санкт-Петербург, 03–05 декабря 2019 года. – Санкт-Петербург: ИПЦ СПбГУТД, 2019. – С. 102-104. – EDN DYBQHG.
17. Alidjanova L., Nigmatullayev I. Abu Raykhan Beruni And His Scientific-Spiritual Heritage // International Scientific and Current Research Conferences. – 2020. – С. 80-82.
18. Ibrohim, Nig'matullayev. "MAHMUDXO'JA BENBUDIY ASARLARI VA UNING AHAMIYATI." *Yosh Tadqiqotchi Jurnali* 1.2 (2022): 43-46.
19. Ниғматуллаев И. ЎЗБЕКИСТОНДА МИЛЛАТЛАРАРО ТОТУВЛИК ВА ДИНИЙ БАҒРИКЕНГЛИКНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ // BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – Т. 2. – №. 1. – С. 166-171.

20. Nig‘matullayev, I. . (2024). O‘ZBEKISTONDAGI SHIA JAMOALARI XUSUSIYATLARI VA ULARNING O‘ZIGA XOSLIGI. *Наука и инновация*, 2(1), 79–83. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/si/article/view/26269>

“Innovations in Science and
Technologies”